



RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALARI O'RNIDA CHATGPT KABI SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLARI"

Eraliyeva Zamira Rasuljonovna

Qo'qon universiteti katta o'qituvchisi

zamirahoneraiyeva22@gmail.com

Behzodova Madinabonu Behzod qizi

"Ta'lim" fakulteti talabasi

Behzodovamadinaxon@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil

Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil

Jurnal soni: 16-B

Maqola raqami: 4

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1289>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Sun'iy intellekt, raqamli platformalar, oliy ta'limda texnologiyalar, adaptiv ta'lim tizimlari, ekspert tizimlar, bilimlarga asoslangan tizimlar, raqamli platformalar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola "Raqamli ta'lim platformalari o'rnida ChatGPT kabi sun'iy intellekt vositalarining pedagogik imkoniyatlari va cheklovlari" mavzusida zamonaviy ta'lim tizimining muhim jihatlari, o'rni va samaradorligi tahlil qiladi. Maqolada sun'iy intellekt vositalari - xususan, ChatGPT, Grammarly, Notion AI kabi platformalarning talabalar hayotidagi o'rni yoritiladi. Ularning dars tayyorlash, insho yozish, tarjima qilish kabi jarayonlardagi roli, qulayliklari hamda ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur bo'lgan jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada sun'iy intellektning pedagogik faoliyatdagi o'rni haqida batafsil ma'lumot berilgan. Oliy ta'limni innovatsion rivojlantirish sharoitida ta'lim jarayonlarini boshqaruvchi intellektual ta'lim tizimlarining imkoniyatlari va xususiyatlari haqida so'z boradi. Oliy ta'lim muassalarida intellektual tizimlardan foydalanish ta'lim sifatining oshishi, ta'lim jarayonlaridagi shaffoflikni ta'minlashi, talabalar uchun yaratiladigan qulayliklarning tahlili ko'rildi. Shuningdek, ta'lim sifatini ta'minlashda sun'iy intellekt tizimlarining o'rni va hozirgi kunda keng tarqalgan ayrim intellektual ta'lim platformalari xususida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada mavjud adabiyotlar tahlil qilinadi, ta'lim sharoitida qo'llaniladigan sun'iy intellektga asoslangan turli usullar muhokama qilinadi, tadqiqotlar natijalari keltirilgan va sun'iy intellektning pedagogikaga ta'siri haqida tushunchalar berilgan.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida dunyo miqyosida raqamli texnologiyalar keskin rivojlanib ketdi va bu nafaqat ta'lim tizimiga, balki, an'anaviy usullarga asoslangan darslar o'rnini raqamli platformalar, jumladan sun'iy intellekt (SI) vositalari, mobil ilovalar va raqamli texnologiyalarga asoslangan interaktiv, moslashuvchan, individual yondashuvlar egallab bormoqda. Sun'iy intellekt so'nggi yillarda ta'lim sohasida ham keng joriy etilmoqda. SI texnologiyasi rivojlanishda davom etar ekan, SI nima ekanligini, turli SI xizmatlari qanday ishlashini va ularning maqsadlari, ijobiy va salbiy tomonlarini tushunish juda muhimdir. Sun'iy intellekt so'nggi yillarda ta'lim sohasida ham keng joriy etilmoqda. Talabalar uchun bu texnologiyalar katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Xususan, ChatGPT, Grammarly, QuillBot, Notion AI kabi vositalar talabalarning bilim olish, mustaqil ishlash va ijodiy fikrlash jarayonlarini yengillashtiradi.

Mavzuning ahamiyati shundan iboratki, ChatGPT – bu sun'iy intellekt asosida ishlaydigan virtual yordamchi bo'lib, foydalanuvchining savollariga tushunarli tarzda javob bera oladi. Talabalar undan darslarga tayyorgarlik ko'rishda, matnlar tuzishda, mavzularni izohlab berishda foydalanishlari mumkin. Grammarly esa ingliz tilidagi matnlar uchun grammatika, uslub va orfografiyani tekshiradi, bu esa insho yoki referatlar tayyorlashda katta yordamlashadi. QuillBot yordamida esa mavjud matnlarni plagiatlarni shaklda qayta yozish, sinonimlarni tanlash va ifoda uslubini o'zgartirish mumkin. Notion AI esa ko'p vazifali vosita bo'lib, eslatmalar, rejalashtirish, jadval tuzish va yozuvlarni saqlashda qulaylik yaratadi. Bu vositalarning barchasi zamonaviy talabaning samarali o'qishi uchun mustahkam tayanch bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellekt vositalarining o'quv jarayoniga ta'siri ijobiy baholanmoqda. Masalan, "Educational Technology Research and Development" jurnalida chop etilgan maqolalarda ta'kidlanishicha, sun'iy intellektga asoslangan vositalar individual o'qitish modelini qo'llab-quvvatlab, har bir talabaning ehtiyojiga qarab yondashish imkonini beradi. Bu esa an'anaviy o'quv metodlaridan farqli ravishda, talabaning o'zlashtirish darajasini yaxshilaydi. Kelajakda bu vositalarning imkoniyatlari yanada kengayib boradi. Masalan, shaxsiy AI tutorlar, ovoqli suhbatlar orqali dars o'tish, vizual tushuntirishlar kabi funksiyalar kundalik o'quv

amaliyotiga kirib keladi. Shu sababli, bugungi kunda talabalar bu texnologiyalarni puxta o'zlashtirib olishlari, ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni o'rganishlari kerak.

Shuningdek, mamlakatimizda pandemiya davrlaridan boshlab onlayn ta'limning keng ommalashuvi til o'rgatish strategiyalarini tubdan o'zgartirib yubordi. Raqamli platformalar o'quvchilarga nafaqat til o'rganib bilim olish, balki uni real vaqtda amaliyotda qo'llash, til muhitiga "sho'ng'ish" imkonini ham yaratmoqda. Aynan shu omillar ta'sirida bugungi kunda sun'iy intellekt asosidagi o'qitish usullariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Nufuzli tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim vositalaridan foydalangan holda xorijiy til o'rganayotgan o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari an'anaviy metodlarga nisbatan 30–40% yuqori bo'lmoqda. "Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari jahon miqyosida katta o'zgarishlar yasayotgani, ayniqsa, ta'lim tizimida tub burilishlar qilayotgani hammamizga ayon. 2023-yilda McKinsey kompaniyasining ta'lim texnologiyalariga bag'ishlangan hisobotida raqamli texnologiyalar asosida til o'rganuvchilar orasida til o'zlashtirish tezligi o'rtacha 40% ga oshgani qayd etilgan hamda 2032-yilga kelib tillarni raqamli ravishda o'rganish bozori hajmi 101,94 millard dollarga yetishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari, xususan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), adaptiv algoritmlar, ovoz tanish tizimlari, chatbotlar va til o'rganish bo'yicha mashinaviy o'rganish modellari xorijiy til o'rganishni yanada soddalashtirmoqda. Masalan, Duolingo platformasining AI vositalari avval til o'rganuvchining darajasini aniqlab olib, keyin ularning darajasiga mos keladigan mashqlarni avtomatik tarzda taqdim etadi.

Grammarly platformasi esa yozma nutqdagi turli grammatik xatolarni tuzatish, uslubni takomillashtirish va tarjimani avtomatlashtirish orqali til o'rganuvchilarning yozma ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, Rosetta Stone kabi ilovalar AI asosida talaffuzni to'g'rilash, fonetik tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Endilikda o'qituvchilar va o'quvchilar uchun yangicha o'qitish va o'rganish usullari, innovatsion platformalar, individual yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Tadbir davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar aynan shu imkoniyatlardan unumli foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilishga qaratilgan. Siz, hurmatli

pedagoglar, ChatGPT, Canva, Gamma SI, Perplexity kabi ilg'or vositalarni o'zlashtirib, ularni darslarda foydali qo'llash ko'nikmalarini hosil qilasz. O'zbekiston Respublikasida ham raqamli texnologiyalarni til o'rganish jarayonlariga ham tadbir qilish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarini to'g'ri va samarali qo'llash orqali har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini qondirish va ularning imkoniyatlarini to'liq ochib berish mumkin bo'ladi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" tamoyili doirasida maktab va oliy ta'lim bosqichlarida raqamli ta'lim vositalarining bosqichma-bosqich joriy qilinayotgani kuzatilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi PQ – 239-son "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida ingliz tilini o'qitishning innovatsion metodlari, onlayn platformalari va mobil ilovalari orqali ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'lga qo'yilgan.

Sun'iy intellekt sohasidagi rivojlanish, insoniyatni yangi unumdorlikka olib chiqmoqda. Bu texnologiya, turli sohalarida o'zaro aloqani osonlashtirib, ko'plab vazifalarni avtomatlashtirish, boshqa so'z bilan aytganda, yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Bir qancha sohalarida, sun'iy intellekt hayotimizni yanada zamonaviy va sodda qilmoqda. Bunday innovatsiyalar hamda yangi imkoniyatlar bilan birga xavfsizlik masalalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Sun'iy intellektning bugungi kundagi dolzarbligi shundaki u kundalik hayotimizda tobora rivojlanib borayotgan XXI asrda zamonaviy texnologiyalar insonlar hayotida muhim va ajralmas qismga aylanmoqda. Ayniqsa so'nggi yillarda takomillashgan sun'iy intellekt insonlarning nafaqat bilim olishi, balki kundalik hayotiga ham ta'sir qilmoqda. Biz sun'iy intellektidan muvaffaqiyatli foydalanishimiz uchun, avvalo, uning rivojlanish tarixini bilishimiz zarur. Sun'iy intellekt atamasi 1955 – yilda Jon Makkarti (John McCarthy) tomonidan kiritilgan. 1956 – yilda Makkarti va boshqalar Sun'iy intellekt bo'yicha Yozgi Dartmut Tadqiqot Loyihasi konferensiyasini tashkil etishdi. Ushbu tashabbus mashina o'rganishi, chuqur o'rganish, bashoratli tahlillar kabi ko'p ixtirolar qilinishiga olib keldi. Undan tashqari, bu tashabbus yangidan – yangi sohani – ma'lumotshunoslikni (data science) keltirib chiqardi. 1990 – yillarda sun'iy intellekt taraqqiyotida yangi sahifa ochildi. 1997 – yilda Deep Blue nomli IBM kompyuteri shaxmat bo'yicha jahon chempioni Garri Kasparovni yenggan tarixdagi ilk kompyuter bo'ldi. Shunday qilib, Sun'iy intellekt – tezkor hisoblash muhitida algoritmlar yaratish va qo'llash orqali insonning aql – idrok jarayonlariga taqlid qilishga asoslanadi. Sodda qilib aytganda, sun'iy intellekt kompyuterlarni odam kabi o'ylash va ulardek yechim topishga yo'naltiradigan texnologiyadir.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli ta'lim platformalari o'rnida ChatGPT kabi sun'iy intellekt vositalarining pedagogik imkoniyatlari va cheklavlari mavzusi bo'yicha o'zbek adiblari ko'plab izlanishlar olib borganlar. Jumladan: Saida Ismailovna Hamrayeva va Mansur Javlonbekovich Samandarov tomonidan yozilgan: "Sun'iy intellekt va uning asosida yaratilgan texnologiyalar tahlili" nomli maqolasida bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) va uning asosida yaratilgan texnologiyalar juda keng ko'lamda qo'llanilgan.¹ Ushbu texnologiyalar bir nechta sohalarida shu jumladan tibbiyot, ta'lim, turizm, huquq, tijorat, va boshqa sohalarida ishlatilishi va uning asosida yaratilgan texnologiyalar haqida umumiy tushuncha, ularning ishlash prinsiplari, ularning o'rni turli sohalarida ko'rinishi, ularning muammolari va kelajakda ularga oid e'tiroflar haqida batafsil bayon qilingan.

Xudoyorova Ziyoda Maratovna va Erkaboyeva Jasmina Safarali qizining "Sun'iy intellekt va raqamli platformalar asosida til o'rgatishning innovatsion yondashuvlari" nomli maqolasida xorijiy til

o'rgatish jarayonida sun'iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanishga oid innovatsion yondashuvlar tizimli tahlil qilingan.² Maqolada Global va milliy miqyosdagi amaliy tajribalar asosida til o'rgatishda Natural Language Processing, adaptiv algoritmlar, chatbotlar va ovoz tanish tizimlarining samaradorlik darajasi ochib bergan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlar, raqamli ta'lim resurslari va ilg'or xorijiy tajribalar asosida sun'iy intellekt texnologiyalarining amaliyotga joriy etilishi holati yoritiladi. Maqolada mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda, mavjud infratuzilma, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasiga til o'rgatish jarayonining mahalliy kontekstda moslashtirilmaganligi kabi dolzarb muammolarga ham e'tibor qaratilgan.

Xudayberdiyev Firdavs Qodir o'g'lining "Sun'iy intellektning pedagogik faoliyatdagi o'rni" nomli maqolasida sun'iy intellektning pedagogik faoliyatdagi o'rni haqida batafsil ma'lumot berilgan.³ Maqolada ta'lim sifatini ta'minlashda sun'iy intellekt tizimlarining o'rni va hozirgi kunda keng tarqalgan ayrim intellektual ta'lim platformalar xususida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada mavjud adabiyotlar tahlil qilingan, ta'lim sharoitida qo'llaniladigan sun'iy intellektga asoslangan turli usullar muhokama qilingan, tadqiqotlar natijalari keltirilgan va sun'iy intellektning pedagogikaga ta'siri haqida tushunchalar berilgan.

Metodologiya. Ushbu maqolada ChatGPT kabi sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining raqamli ta'lim platformalari o'rnida qo'llanilish imkoniyatlari va ularning pedagogik jihatlari har tomonlama o'rganish maqsad qilingan. Maqolada zamonaviy raqamli vositalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi, ayniqsa, sun'iy intellekt asosidagi dialogli tizimlar (AI-based conversational systems) orqali ta'lim samaradorligini oshirish jarayonlari ko'rib chiqildi. Oliy ta'limni innovatsion rivojlantirish sharoitida ta'lim jarayonlarini boshqaruvchi intellektual ta'lim tizimlarining imkoniyatlari va xususiyatlari haqida aytib o'tildi. Oliy ta'lim muassalarida intellektual tizimlardan foydalanish ta'lim sifatining oshishi, ta'lim jarayonlaridagi shaffoflikni ta'minlashi, talabalar uchun yaratiladigan qulayliklarning tahlili ko'rib chiqildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatli ilmiy izlanish tamoyillariga asoslanib, quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Nazariy-asoslovchi yondashuv ya'ni tadqiqotning boshlang'ich bosqichida ChatGPT kabi sun'iy intellekt vositalarining ilmiy-nazariy asoslari o'rganildi. Buning uchun ilg'or xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, zamonaviy pedagogika va ta'lim texnologiyalari sohasidagi tadqiqotlar tahlil qilindi. Asosiy e'tibor quyidagi yo'nalishlarga qaratildi: sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish texnologiyalarining metodologik asoslari, ChatGPT modelining ishlash prinsipi va o'quv jarayonida undan foydalanish imkoniyatlari, an'anaviy va raqamli ta'lim platformalarining taqqoslamali tahlili, konstruktivistik ta'lim yondashuvi va sun'iy intellekt vositalari uyg'unligi.

Adabiyotlar tahlili (Content analysis). Maqolani yozishda 2020–2025 yillarda chop etilgan dolzarb ilmiy maqolalar, xalqaro hisobotlar, ta'lim va texnologiyalar sohasidagi ilmiy jurnallar materiallari tahlil qilindi. Bunda, ayniqsa, OpenAI tomonidan taqdim etilgan texnik hujjatlar, ChatGPTdan foydalanish bo'yicha metodik ko'rsatmalar, UNESCO va OECD kabi tashkilotlarning raqamli ta'lim bo'yicha tavsiyalari asosiy manba sifatida qaraldi. Adabiyotlar tahlili orqali quyidagilar aniqlashtirildi: ChatGPTning ta'lim sohasidagi qo'llanilishi bo'yicha global tendensiyalar; Turli yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashdagi afzalliklar va cheklavlari; Pedagogik vosita sifatida ChatGPTning metodik imkoniyatlari.

Taqqoslov (komparativ) tahlil. Tadqiqotda ChatGPT kabi sun'iy intellekt vositalari va an'anaviy raqamli ta'lim platformalari (masalan,

¹ S.I. Hamrayeva, M. J. Samandarov "Sun'iy intellekt va uning asosida yaratilgan texnologiyalar tahlili" Academic research in educational sciences March, 2023 2181-1385

² Xudoyorova Ziyoda Maratovna va Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi "Sun'iy intellekt va raqamli platformalar asosida til o'rgatishning innovatsion yondashuvlari" nomli maqolasida International Conference on MODERN EDUCATION AND INNOVATIVE APPROACHES

TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES" 2025-05-21 [2025: International Conference on MODERN EDUCATION AND INNOVATIVE APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES](#)

³ Xudayberdiyev Firdavs Qodir o'g'lining [Sun'iy intellektning pedagogik faoliyatdagi o'rni](#) Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences May, 2024

Moodle, Coursera, Khan Academy va h.k.) o'rtasidagi o'zaro farqlar, afzalliklar va cheklovlar tahlil qilindi. Taqqoslov tahlil orqali quyidagilar ko'rib chiqildi: Interaktivlik darajasi; moslashuvchanlik (adaptive learning); mustaqil o'rganishni rag'batlantirish imkoniyati; o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikatsiya o'rnini bosish darajasi; Akademik halollik va mualliflik huquqi bilan bog'liq muammolardir.


Konseptual tahlil va gipotetik model qurish. Tadqiqot doirasida ChatGPT vositasi pedagogik jarayonda qanday metodik funksiyalarni bajarishi mumkinligi haqida konseptual model ishlab chiqildi. Ya'ni, ChatGPT: o'quvchi uchun shaxsiy tutor, o'qituvchi uchun metodik yordamchi, ta'lim resurslarini avtomatlashtirilgan tarzda yaratish vositasi sifatida qaralib, bu rollar alohida baholandi. Shu asosda sun'iy intellektdan ta'limda foydalanishga doir gipotetik qo'llanma modeli taklif qilindi.

Holat tahlili (case study). Nazariy asoslarni hayotiy tajribalar bilan boyitish maqsadida turli o'quv muassasalarida (xususan, oliy o'quv yurtlarida) ChatGPTning amaliy qo'llanilishi bilan bog'liq mavjud holatlar o'rganildi. Bu holatlar orqali: o'qituvchilarning ChatGPTdan foydalanishdagi tajribasi; O'quvchilarning ushbu vositaga bo'lgan munosabati; O'quv jarayonidagi samaradorlik dinamikasi kuzatildi va umumlashtirildi. Ushbu metodologik yondashuv orqali ChatGPT kabi sun'iy intellekt vositalarining ta'limdagi o'zni nafaqat texnik jihatdan, balki pedagogik, psixologik va etik nuqtai nazardan ham tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida ushbu texnologiyalarning ta'lim tizimiga integratsiyasi uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu maqolada raqamli ta'lim platformalari o'rnida ChatGPT kabi sun'iy intellekt vositalarining pedagogik imkoniyatlari va cheklovlari o'ldiradi tadqiqotlar, mutaxassislar fikrlari va statistika ma'lumotlari asosida tayyorlandi. Ilmiy izlanishlar zamonaviy pedagogik va texnopedagogik nazariyalar asosida olib borildi. Maqolada sun'iy intellektning pedagogik faoliyatdagi o'zni haqida batafsil ma'lumot berilgan. Oliy ta'limni innovatsion rivojlantirish sharoitida ta'lim jarayonlarini boshqaruvchi intellektual ta'lim tizimlari imkoniyatlari va xususiyatlari haqida aytib

o'tilgan. Oliy ta'lim muassasalarida intellektual tizimlardan foydalanish ta'lim sifatining oshishi, ta'lim jarayonlaridagi shaffoflikni ta'minlashi, talabalar uchun yaratiladigan qulayliklarning tahlili ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ta'lim sifatini ta'minlashda sun'iy intellekt tizimlarining o'zni va hozirgi kunda keng tarqalgan ayrim intellektual ta'lim platformalar xususida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Sun'iy intellektlar, bilimlar bazasi va ma'lumotlar bazalarining intellektual tizimdagi ahamiyati va ularni qo'llash tavsiya etildi. Bu tizimlarning tadbiri, o'qish sifatining oshishi bilan baholandi.

Natijalar. Bugungi kunda sun'iy intellekt hayotimizning barcha qismlarida, shu jumladan ta'lim tizimida ham jadal rivojlanib inson ongining mahsuli hisoblangan zamonaviy intellektual vositadir. Shuningdek, ChatGPT va shunga o'xshash sun'iy intellekt vositalari zamonaviy ta'limda yangi metodik yondashuvlar uchun muhim vosita sifatida qaralmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari hozirgi kunda ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlarni olib kelmoqda. Sun'iy intellekt (SI) bu jarayonning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. SI ta'lim jarayonining turli jihatlariga joriy etilishi bilan o'qituvchilar va o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Men konseptual tahlilni tadqiqotlarda Qo'qon universiteti BT 1-24 va 2-24-guruh talabalar o'rtasida kuzatuv tarzida o'tkazdim. Kuzatuv natijalariga ko'ra guruhlarda o'quvchilar soni 50 tani tashkil qiladigan bo'lsa ularning 30%i ingliz tilidan Grammarlydan, qolgan 70%i esa deyarli Chat GPTdan foydalanadi. Bu jarayonni Holat tahlili (case study) ga ko'ra kuzatadigan bo'lsak, nazariy asoslarni hayotiy tajribalar bilan boyitsak bu holatlar orqali talabalar orasida ChatGPTdan foydalanish bo'yicha ijobiy fikrlar bildirganlar 85% ni tashkil qildi. Ushbu talabalar ChatGPT ularga mustaqil ta'lim olish, dars materiallarini yanada yaxshiroq tushunish va topshiriqlarni bajarishda muhim ko'makchi vosita sifatida xizmat qilganini ta'kidladilar. Ular asosan ChatGPTning (Esse yozish va matn tahrirlash, ilmiy maqolalar uchun manbalar topish, murakkab mavzularni tushunish, turli xil chet tillarini o'rganish) kabi jihatlarini foydali ekanliklarini ta'kidladilar.



Metodologik taqqoslash diagrammasida keltirilgan ChatGPT, Grammarly, Notion AI ning ko'rsatgichlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ChatGPTga qaraganda adabiyotlar tahlilidan foydalanish ko'rsatgichi juda kam foizni tashkil qiladi. Ya'ni 10-20%ni tashkil qilaypti. Chunki hozirgi kunda ChatGPTdan foydalanishda imkoniyatlar ko'p. Konseptual tahlilda ChatGPT va Notion AI yuqoriroq, Grammarly esa ancha past. Holatlar tahlilida ChatGPT biroz ustun, Grammarly ham o'rtacha, lekin Notion AI undan ancha yuqori foizni tashkil etadi. Kuzatish tahlilida Notion AI eng yuqori natijani ko'rsatgan, ChatGPT ham o'rtacha, Grammarly esa past. Adabiyotlardan foydalanishda esa ChatGPT juda yuqori, Notion AI undan pastroq, Grammarly esa eng past. Diagrammadan ko'rinadiki, ChatGPT ilmiy adabiyotlardan foydalanishda kuchli, Notion AI kuzatish va holat tahlilida yetakchi,

Grammarly esa asosan til va grammatikaga yo'naltirilgan bo'lgani uchun boshqa metodologik tahlillarda past natija ko'rsatmoqda.

Muhokama. Tadqiqotda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari va raqamli platformalarning ta'lim tizimida keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu texnologiyalarda, ayniqsa, raqamli ta'lim platformalari o'rnini to'liq emas, ammo sezilarli darajada to'ldiruvchi, ba'zan esa ularni samaradorlik jihatidan ortda qoldiruvchi pedagogik qurol sifatida qaralmoqda. Bunda pedagogik afzalliklar ya'ni ChatGPTning asosiy pedagogik ustuvorliklaridan biri - bu shaxsiylashtirilgan (individual) yondashuvni ta'minlashdir. Bunda o'quvchining bilim darajasiga mos ravishda javob berilib, murakkab tushunchalarni soddalashtirib tushuntiriladi va o'quvchining fikrlash darajasiga mos dialog olib boradi. Shu tarzda o'quvchiga bu mustaqil

o'rganish yuqori motivatsiya bo'la oladi. Bundan tashqari, boshqa afzalliklarini ko'rib chiqadigan bo'lsak o'quvchilar undan istalgan vaqtda savollariga javob olish imkoniga ega. Tezkor ma'lumot taqdimoti haqida aytadigan bo'lsak bunda boshqa manbalarga qaraganda tez va tushunarli javoblar olish mumkin; Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – bunda esa o'quvchilarning savollariga turli xil yo'nalishlarda javob berish orqali ularda keng fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi; Til o'rganishda ko'makchi vosita – Ayniqsa, chet tillarini o'rganishda ChatGPT samarali hamroh bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, ChatGPTning ta'limda qo'llanilishi bir qator cheklov va xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Bularni ko'rib chiqadigan bo'lsak avvalo, bu haqiqiy inson o'qituvchisining o'rnini to'liq bosolmaydi, negaki unda emotsional va ijtimoiy yondashuv yetishmaydi - sun'iy intellekt o'quvchining hissiy holatini baholay olmaydi. Qolaversa talabalar ushbu intellektual tizimdan foydalangan holda istalgan mavzuda maqolalar, hikoyalar, esseylar yaratish mumkin. Ular har qanday antiplagiat platformalar xizmati tomonidan tekshirilganda o'zining takrorlanmas ma'lumotlarini saqlab qoladi, ishonchli, yuqori sifatli ma'lumotlarga asoslanib ish ko'radi. Bunday holat esa talabalarni dangasalikka, fikrlash va yozish ko'nikmalarini zaiflashishiga olib keladi. Bunga ko'ra o'qituvchilarning roli kamayishi xavfi duch kelinadi va texnologiyaga haddan ziyod o'rganib qolish ta'lim jarayonida o'qituvchining didaktik va tarbiyaviy taraflarini cheklashiga olib kelishi mumkin. Buni raqamli platformalar bilan solishtiradigan bo'lsak Moodle, Google Classroom, Edmodo, yoki Coursera kabi an'anaviy raqamli ta'lim platformalari, asosan, ma'lumot tarqatish, vazifa berish va baholash tizimlariga yo'naltirilgan bo'lsa, ChatGPT kabi SI vositalari interaktiv muloqotga asoslangan o'quv muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bu jihatdan ular bir-birini to'ldirishi mumkin: raqamli platforma – tashkiliy-boshqaruv vositasi bo'lsa, ChatGPT – o'quvchiga shaxsiy tutor rolini bajara oladi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. YUNESCO "Artificial Intelligence in Education" <https://www.unesco.org/en/digital-education/artificial-intelligence>
2. D.Qo'shboqova, D.Boltayeva, Z.Shermatova (2023) "The role of technology in language learning", "Journal of language pedagogy and innovative applied linguistics". 1(4), 181-184.

o'qituvchilarni sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish bo'yicha o'qitish va metodik qo'llanmalar yaratish ChatGPTni mustaqil o'rganish vositasi sifatida, ammo nazorat ostida foydalanishni yo'lga qo'yishimiz kerak. Sun'iy intellekt asosidagi vositalarni o'quv dasturlariga integratsiya qilishda ehtiyotkorlik bilan, bosqichma-bosqich yondashishimiz, o'quvchilarni SI vositalaridan foydalanish madaniyatiga o'rgatish (axloqiy va texnik jihatdan) tavsiyalariga e'tibor qaratishimiz zarur. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ChatGPT va unga o'xshash sun'iy intellekt vositalari hozirgi vaqtda raqamli ta'limning yangi bosqichini boshlab berdi. Ular an'anaviy platformalarni to'ldiruvchi, mustaqil o'rganishga ko'maklashuvchi va ta'limda shaxsiylashtirish imkonini beruvchi samarali texnologiyadir. Biroq, bu vositalarning pedagogik cheklovlarini e'tiborsiz qoldirish ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, ularni oqilona, nazoratli va metodik jihatdan asoslangan tarzda joriy etish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt (AI) - bu, savollarga javob berish, tasvirlar yaratish, matn yozish, ma'lumotlarni qayta ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilish kabi turli vazifalarni bajarishga qodir tizim. ChatGPT va unga o'xshash sun'iy intellekt vositalari zamonaviy ta'lim jarayonida katta rol o'ynaydi. Ular yordamida talabalar o'z bilimlarini chuqurlashtirishi, murakkab mavzularni o'zlashtirishi va o'quv topshiriqlarini ancha yengil bajarishi mumkin. Ammo ularni to'g'ri, maqsadli va mas'uliyat bilan qo'llash zarur. Sun'iy intellekt – bu yordamchi, ammo asosiy ijodkor har doim insonning o'zi bo'lishi kerak. Bundan tashqari, sun'iy intellekt vositalari yordamida til o'rganish jarayoni ham samarali tarzda tashkil etilishi mumkin. Sun'iy intellekt ta'lim jarayoniga to'g'ri va maqsadli yo'naltirilgan holda integratsiyalansa, u zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi va ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi mumkin.

3. Hansuk Um, Hisam Kim, Dain Choi, Hyungna Oh "An AI-based English education platform during the COVID-19 pandemic", Universal access in the information society. VL-23. pp. 1233-1248. <https://dl.acm.org/doi/10.1007/s10209-023-01046-2>